

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA MEDIA-KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA-TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH.

Davletova Xosiyat Sapavoy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi, institut mustaqil izlanuvchisi.

davletovaxosiyat907@gmail.com, +998888586727

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22139186>

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirishda media-topshiriqlardan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagoglarning media-axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, tanqidiy baholash, verifikatsiya qilish, media kontent yaratish hamda undan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish zarurati asoslangan. Media-topshiriq tushunchasining pedagogik mohiyati ochib berilib, uning oddiy axborot yoki texnologik topshiriqdan farqli jihatlari aniqlashtirilgan. Maqolada media-topshiriqlarni qo‘llash mexanizmi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, media-kompetentlik, bo‘lajak pedagog, media-topshiriq, media savodxonlik, media ta’lim, media axborot, media loyiha, refleksiya.

Аннотация: В данной статье освещены педагогические и методические возможности использования медиа-заданий в развитии медиакомпетентности будущих педагогов в цифровой образовательной среде. Обоснована необходимость формирования у будущих педагогов компетенций по поиску, отбору, анализу, критической оценке, верификации медиаинформации, созданию медиаконтента, а также его эффективному использованию в педагогических целях в условиях современного образования. Раскрыта педагогическая сущность понятия медиа-задания, уточнены его отличительные особенности от обычного информационного или технологического задания. В статье предложен механизм применения медиа-заданий.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, медиакомпетентность, будущий педагог, медиа-задание, медиаграмотность, медиаобразование, медиаинформация, медиапроект, рефлексия.

Abstract: This article highlights the pedagogical and methodological possibilities of using media tasks in developing the media competence of future teachers in a digital learning environment. The necessity of developing future teachers’ competencies in searching, selecting, analyzing, critically evaluating, verifying media information, creating media content, as well as effectively using it for pedagogical purposes in modern educational conditions is substantiated. The pedagogical essence of the concept of a media task is revealed, and its distinctive features from an ordinary information or technological task are clarified. The article proposes a mechanism for the application of media tasks.

Keywords: digital learning environment, media competence, future teacher, media task, media literacy, media education, media information, media project, reflection.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi pedagogning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslari, videoplatformalar, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar, raqamli taqdimotlar, infografikalar va boshqa media vositalaridan foydalanish kengayib borayotgan bir sharoitda pedagogning faqat texnologik vositalardan foydalana olishi yetarli emas. U media-axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash, yaratish va pedagogik maqsadlarda qo‘llash kompetensiyasiga ham ega bo‘lishi lozim.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Media va axborot savodxonligi bo‘yicha o‘qituvchilar uchun o‘quv dasturida media va axborot muhitining kengayishi sharoitida o‘qituvchilarning ushbu jarayondagi muhim roli alohida ta’kidlangan [1]. Media-kompetentlikning rivojlanishi, ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash bosqichida muhim ahamiyatga ega. Chunki oliy ta’lim muassasasida shakllangan media bilan ishlash madaniyati keyinchalik pedagogning kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. D. Buckingham media ta’limning asosiy vazifalaridan biri ta’lim oluvchini media xabarlarini passiv qabul qiluvchi emas, balki ularni anglaydigan, tahlil qiladigan va yaratadigan faol subyektga aylantirish ekanligini ta’kidlaydi [2].

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirish jarayonini faqat nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish asosida tashkil etish yetarli emas. Talabalar real media axborot bilan ishlashi, uning ishonchligini tekshirishi, turli media manbalarni taqqoslashi, media mahsulot yaratishi va

o‘z faoliyatini baholashi zarur. Bunday faoliyatni tashkil etishda media-topshiriqlar samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Media-topshiriq tushunchasining pedagogik mohiyati. Pedagogik jarayonda topshiriq ta‘lim oluvchini muayyan faoliyatni mustaqil yoki hamkorlikda bajarishga yo‘naltiruvchi didaktik vosita hisoblanadi. Media-topshiriq esa mazkur faoliyatni media axborot va media vositalari bilan bog‘laydi.

Bizningcha, media-topshiriq-bo‘lajak pedagogning media axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, tanqidiy baholash, tekshirish, qayta ishlash, yaratish va pedagogik faoliyatda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, aniq ta‘limiy maqsad asosida ishlab chiqilgan amaliy topshiriqdir.

Media-topshiriqning muhim jihati shundaki, unda media vositasining mavjudligi asosiy mezon hisoblanmaydi. Masalan, talabaga videoni tomosha qilish topshiriq‘ini berishning o‘zi to‘liq media-topshiriq hisoblanmaydi. Agar talaba videodagi axborotning manbasini aniqlasa, uning maqsadi va auditoriyasini belgilasa, keltirilgan dalillarni boshqa manbalar bilan taqqoslasa, manipulyativ jihatlarni aniqlasa va pedagogik xulosa chiqarsa, bunday faoliyat media-topshiriqning mazmunini tashkil etadi. Media savodxonlikning zamonaviy talqinlarida ham media xabarlarini anglash, tanqidiy tahlil qilish, baholash va media kontent yaratish qobiliyatlari muhim o‘rin egallaydi [2; 4].

Media-topshiriqlarning bo‘lajak pedagoglar media-kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari. Media-topshiriqlarning asosiy pedagogik imkoniyati shundaki, ular bo‘lajak pedagogni real media faoliyatga jalb etadi. Ushbu jarayonda talaba tayyor axborotni o‘zlashtirishdan ko‘ra, axborot bilan mustaqil ishlashga o‘tadi.

Birinchidan, media-topshiriqlar media axborotni izlash va saralash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Talaba muayyan pedagogik muammo yuzasidan turli manbalardan axborot izlaydi, ularni taqqoslaydi va maqsadga muvofiq manbalarni tanlaydi. Bu kerakli va ishonchli ma‘lumotni ajratib olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, media-topshiriqlar tanqidiy media tahlilini shakllantirishga xizmat qiladi. Talabaga bir mavzuga oid turli media materiallari taqdim etilib, ularning mazmuni, muallif pozitsiyasi, maqsadi, auditoriyasi va ta‘sir vositalarini aniqlash topshiriladi.

Media-topshiriqlarning turlari. Bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni kompleks rivojlantirish uchun media-topshiriqlarni mazmuni va bajariladigan faoliyat turiga ko‘ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Media-axborotni izlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar

Bunda talabalar muayyan pedagogik mavzu bo‘yicha internet, elektron kutubxona, ta‘lim platformalari va boshqa raqamli manbalardan axborot izlaydi

3. Media-verifikatsion topshiriqlar

Mazkur topshiriqlarda axborotning ishonchligini aniqlash asosiy maqsad hisoblanadi. Talaba xabarning manbasini aniqlaydi, boshqa manbalar bilan taqqoslaydi, fakt va fikrni ajratadi hamda xabarning ishonchligi haqida xulosa chiqaradi.

5. Media-loyihaviy topshiriqlar

Media-loyihaviy topshiriqlar muammoni aniqlash, axborot yig‘ish, media mahsulotni rejalashtirish, yaratish va taqdim etish jarayonlarini qamrab oladi. Bunday topshiriqlar talabaning mustaqilligi, ijodkorligi va hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

6. Refleksiv media-topshiriqlar

Talaba bajarilgan media faoliyatini tahlil qiladi va o‘z faoliyatiga baho beradi. Masalan: “Yaratgan media mahsulotingizning kuchli va zaif tomonlarini aniqlang. Auditoriyaga ta‘sirini baholang va uni takomillashtirishning uchta yo‘lini ko‘rsating.”

Media-topshiriqlar va media-kompetentlik komponentlari. Bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirishda media-topshiriqlarni uning tarkibiy komponentlari bilan uzviy bog‘lash maqsadga muvofiq.

Media-kompetentlik komponenti	Rivojlantiriladigan jihatlar	Mos media-topshiriqlar
Motivatsion-qadriyatli	Media bilan ishlashga qiziqish, mas’uliyat, media axborotga ongli munosabat	Muammoli media vaziyat, media muhokama

Bilim-kognitiv	Media tushunchalari, manbalar, media tahlil mezonlarini bilish	Media tahlil, manbalarni taqqoslash
Faoliyat-amaliy	Axborotni izlash, tekshirish, qayta ishlash, media mahsulot yaratish	Media loyiha, video, infografika, podkast
Refleksiv-baholash	O‘z media faoliyatini tahlil qilish va baholash	Refleksiv hisobot, portfolio, o‘z-o‘zini baholash

Mazkur bog‘liqlik media-topshiriqning bitta ko‘nikmani emas, balki media-kompetentlikning bir nechta tarkibiy komponentlarini kompleks rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Media-topshiriqlarni tashkil etishning metodik bosqichlari.

Media-topshiriqlarni samarali qo‘llash uchun ularni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish zarur. Bizningcha, ushbu jarayonni to‘rtta o‘zaro bog‘liq bosqich asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Birinchii bosqich-motivatsion-dagnostik bosqich.

Mazkur bosqichda talabalarining mavjud media bilimlari, media vositalaridan foydalanish tajribasi, qiziqishlari va media axborotga munosabati aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich-bilim-nazariy bosqich

Ushbu bosqichda media-kompetentlikning nazariy asoslari, media matn xususiyatlari, media manbalar, axborotning ishonchlilik mezonlari, media manipulyatsiya, media etikasi va mualliflik huquqi kabi masalalar o‘rganiladi.

Uchinchi bosqich-faoliyat-amaliy bosqich

Mazkur bosqich media-topshiriqlardan foydalanishning asosiy amaliy bosqichidir. Talabalar real media axborot bilan ishlaydi, uni tahlil qiladi, tekshiradi, qayta ishlaydi va pedagogik media mahsulot yaratadi.

To‘rtinchi bosqich-refleksiv-baholash bosqichi

Yakuniy bosqichda talaba bajarilgan media-topshiriq natijalarini baholaydi. Bunda o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, portfolio, refleksiv kundalik va mezonli baholashdan foydalanish mumkin.

Past darajada talaba media axborotni asosan tayyor ko‘rinishda qabul qiladi va uning ishonchliligini mustaqil baholashda qiynaladi. O‘rta darajada u axborotni izlash, tahlil qilish va oddiy media mahsulot yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yuqori darajada esa talaba media axborotni mustaqil izlaydi, tanqidiy tahlil qiladi, tekshiradi, media mahsulot yaratadi va uning pedagogik samaradorligini refleksiv baholay oladi.

Media-topshiriqlarning TPACK yondashuvi bilan aloqasi. Media-topshiriqlardan foydalanish bo‘ljak pedagogning texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarini integratsiyalash imkonini beradi. P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli pedagogik mazmun bilimlari, texnologik bilimlar va pedagogik bilimlarning o‘zaro integratsiyasini ta‘lim jarayonida samarali texnologik faoliyatning muhim sharti sifatida ko‘rsatadi [3].

Shu jihatdan media-topshiriqni bajarishda talaba faqat media vositasidan foydalanishni emas, balki “nima yarataman?”, “kim uchun yarataman?”, “qaysi texnologik vositadan foydalanaman?”, “bu vosita qanday pedagogik maqsadga xizmat qiladi?” kabi savollarga javob topishi lozim.

Media-topshiriqlarni qo‘llashning pedagogik shart-sharoitlari.

Media-topshiriqlarning samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq.

Birinchidan, media-topshiriqlar kasbiy yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Talaba topshiriqni bajarish jarayonida uning kelajakdagi pedagogik faoliyatida qanday qo‘llanishini anglab yetishi zarur.

Ikkinchidan, topshiriqlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzilishi lozim. Dastlab axborotni topish va saralashga yo‘naltirilgan topshiriqlar, keyinchalik tahliliy, verifikatsion, ijodiy va loyihaviy topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, topshiriqlar talabaning mustaqil faoliyatini ta‘minlashi zarur. Pedagog tayyor javobni bermasdan, talabaga izlanish, taqqoslash, tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatini yaratishi kerak.

To‘rtinchidan, media-topshiriqlarni baholashning aniq mezonlari oldindan belgilanadi. Bu talabaning o‘z faoliyatini mustaqil nazorat qilishiga yordam beradi.

Beshinchidan, har bir media-topshiriq imkon qadar refleksiya bilan yakunlanishi lozim. Chunki media-kompetentlik media mahsulot yaratish bilangina cheklanmaydi, balki ushbu faoliyatni anglash, baholash va takomillashtirishni ham nazarda tutadi.

Muhokama. Media-kompetentlikni rivojlantirishga oid zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlarni tahlil qilish mazkur kompetensiyaning oddiy texnik ko‘nikmalardan kengroq ekanligini ko‘rsatadi. Media-

kompetent pedagog axborotni shunchaki qabul qilmaydi, balki uning manbasi, maqsadi, mazmuni, auditoriyasi va ta'sir mexanizmlarini ham tahlil qiladi.

Media-topshiriqlar ushbu jarayonda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga aylantiruvchi didaktik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ular talabaning mustaqil izlanishi, tanqidiy fikrlashi, ijodiy faoliyati va refleksiyasini birlashtiradi.

Media-topshiriqlarni media savodxonlik va raqamli kompetentlik bilan aynanlashtirib yubormaslik ham muhim. Media savodxonlik ko'proq media xabarlarini tushunish, tahlil qilish va baholashga yo'naltirilsa, media-kompetentlik mazkur bilim va ko'nikmalarni kasbiy faoliyatda maqsadli qo'llash, media mahsulot yaratish, pedagogik vaziyatga mos media vositasini tanlash va o'z faoliyatini refleksiv baholashni ham qamrab oladi.

Shu sababli bo'lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirishning metodik tizimida media-topshiriqlarni alohida texnologik vosita sifatida emas, balki motivatsiya-bilim-faoliyat-refleksiya uzviyligi asosida tashkil etiladigan metodik mexanizm sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Xulosa. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini media vositalari bilan boyitishdan ko'ra kengroq jarayon bo'lib, talabaning media axborot bilan mustaqil, tanqidiy, ijodiy va refleksiv faoliyatini tashkil etishni talab qiladi.

Media-topshiriqni bo'lajak pedagogning media axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, tekshirish, qayta ishlash, yaratish va pedagogik maqsadda qo'llash faoliyatini tashkil etuvchi didaktik birlik sifatida talqin qilish mumkin. Media-topshiriqlarni motivatsion-dagnostik, bilim-nazariy, faoliyat-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlari asosida tashkil etish bo'lajak pedagoglarda media-kompetentlikning motivatsion-qadriyatli, bilim-kognitiv, faoliyat-amaliy va refleksiv-baholash komponentlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Media-topshiriqlardan foydalanishning metodik samaradorligi topshiriqlarning kasbiy yo'naltirilganligi, muammoliligi, mustaqil faoliyatga yo'naltirilganligi, ijodiy xarakterga egaligi va aniq baholash mezonlari bilan belgilanadi.

Mazkur yondashuv bo'lajak pedagogning raqamli ta'lim muhitida nafaqat media vositalaridan foydalanuvchi, balki media axborotni tanqidiy baholovchi, pedagogik media kontent yaratuvchi va o'z media faoliyatini refleksiv boshqara oluvchi mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wilson C., Grizzle A., Tuazon R., Akyempong K., Cheung C.K. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO, 2011. – 192 p.
2. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003.
3. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108. – No. 6. – P. 1017–1054.
4. Potter W.J. Media Literacy. – 9th ed. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2019.
5. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
6. Hobbs R. Digital and Media Literacy: A Plan of Action. – Washington, DC: Aspen Institute, 2010.
7. Fedorov A.V. Media Education and Media Literacy. – Moscow: ICO “Information for All”, 2014.
8. Jenkins H. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. – Cambridge: MIT Press, 2009.
9. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris: UNESCO, 2013.
10. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risidagi Qonun. – Toshkent, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasiga oid Farmoni. – Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasiga oid Farmoni. – Toshkent.